



VOYAGA YETMAGANLAR JAVOBGARLIGINING XUSUSIYATLARI

IIV Surxondaryo akademik litseyi

Huquqshunoslik fani o'qituvchisi

Ko'chkinova Adolat Gulmurod qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola voyaga yetmaganlarning jinoyat qonunchiligida javobgarliga, Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jazolar, javobgarlikka tortilishi uchun qonunda belgilangan ma'lum yoshga to'lgan, aqli raso bo'lishligi va boshqa xususiyatlari hisobga olinadi.

Kalit so'zlar: Jazo, huquqbuzarlik, qonun, oliy sud, plenum, shaxs, ekspertiza, jinoyat.

Voyaga yetmaganlar javobgarligi Qonunga ko'ra voyaga yetmagan shaxs deganda, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar nazarda tutiladi. Jinoiy-huquqiy nuqtai nazardan voyaga yetmagan shaxslar sifatida jinoyat sodir etgunga qadar o'n uch yoshga to'lgan, ammo o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar hisobga olinadi.

Yodda tuting! JKda voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari belgilanganda aksariyat holatlarda uning hozirgi vaqtdagi yoshi emas, balki jinoyat sodir etilgan vaqtdagi yoshi hisobga olinadi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni baholashda ularning ma'lum bir yoshga to'lganligini to'g'ri aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy sud plenumi qaroridan Shaxs tug'ilgan kunidan boshlab emas, balki tug'ilgan kuni o'tganidan so'ng, ya'ni ertasi kunning nol soatidan boshlab jinoyat uchun javobgarlik boshlanadigan yoshga to'lgan deb hisoblanadi. Sudlar ishda albatta voyaga yetmaganlarning tug'ilish guvohnomasi yoki pasportidan fotonusxa mavjudligiga ahamiyat berishlari kerak. Ishda bunday hujjatlar yo'qligi aniqlangan taqdirda sudning o'zi bunday kamchilikni bartaraf



qilishi zarur. Sudlanuvchining yoshi sud-tibbiyot ekspertizasi tomonidan aniqlanayotganda, uning tugʻilgan kuni deb, ekspertlar aniqlagan yilning oxirgi kuni hisoblanadi. Yosh eng kam va eng koʻp yillar miqdori bilan aniqlanganda, sud ekspertlar tomonidan belgilangan eng kam yoshdan kelib chiqishi lozim. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining Qarori / Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar boʻyicha sud amaliyoti toʻgʻrisida / 2000-yil 15-sentabr, 21- son. Voyaga yetmaganlar javobgarligining alohida mustaqil boʻlimga ajratilishi, ularga nisbatan jinoiy javobgarlik haqidagi normalarni qoʻllashda mazkur boʻlimda koʻrsatilgan alohida qoidalarni inobatga olgan holda tatbiq etishi lozimligini anglatadi. Voyaga yetmaganlar javobgarligining asosiy xususiyatlari quyidagilarda ifodalanadi: birinchidan, ularga nisbatan tayinlanadigan jazo turlarining roʻyxati qisqartirilgan hamda ularning muddati va miqdorlari jiddiy ravishda kamaytirilgan (JK 81-m.); ikkinchidan, ularga nisbatan jazo tayinlashda hisobga olinishi lozim boʻlgan qoʻshimcha shartlar shakllantirilgan (JK 86-m.); 96 uchinchidan, ularni javobgarlik va jazodan ozod qilishda (JK 87-m.) qoʻshimcha turlar nazarda tutilgan; toʻrtinchidan, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qoʻllaniladigan alohida majburlov choralari koʻrsatilgan (JK 88-m.); beshinchidan, bunday shaxslarga nisbatan qoʻllaniladigan boshqa jinoiyhuquqiy normalarining muddatlari jiddiy ravishda qisqartirilgan (JK 89–90-m.). Voyaga yetmaganlarga nisbatan qoʻllaniladigan jazolar tizimi JKning 81-moddasiga muvofiq, oʻn sakkiz yoshga toʻlmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga tayinlanadigan jazolar tizimi umumiy tizimga nisbatan (JK 43-m.) jazolarning cheklangan roʻyxatiga ega. Voyaga yetmaganlar uchun jazolar tizimiga faqat asosiy jazolar, yaʼni mustaqil ravishda tayinlanadigan, davlat tomonidan qabul qilinadigan majburlov asoslarini tashkil qiladigan, faoliyatning va jinoyat sodir etgan shaxsning salbiy baholanish darajasini ifodalaydigan hamda, axloq tuzatish-tarbiya taʼsirining boshqa choralari bilan bir qatorda, jazolash maqsadlariga ham erishish imkonini beradigan jazolarni qamrab oladi. Oʻn sakkiz yoshga toʻlmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga



nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy jazolar: 1) jarima; 4) ozodlikni cheklash; 2) majburiy jamoat ishlari; 5) ozodlikdan mahrum qilish. 3) axloq tuzatish ishlari; O'n sakkiz yoshga to'lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'shimcha jazolar tayinlanishi mumkin emas. Jarima (JK 82-m.). JKning 82-moddasida nazarda tutilgan va voyaga yetmaganlarga qo'llaniladigan jarima jazo chorasi qonunda belgilangan miqdordagi pulni davlat hisobiga olib qo'yishdan iboratdir. Voyaga yetmaganlar uchun jarima bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda tayinlanadi (JK 82-m., 1-q.). Yodda tuting! Maxsus qism moddasining sanksiyasida jarima tayinlash mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa, u holda unda belgilangan jarima miqdori qancha bo'lishidan qat'i nazar, voyaga yetmaganlarga JK 82-moddasining 1-qismida belgilangan jarimalar tayinlanishi lozim. Mahkum jarima to'lashdan olti oy muddat mobaynida bo'yin tovlasa, sud to'lanmagan jarima miqdorini bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdoridagi jarimani majburiy jamoat ishlarining ikki soatiga tenglashtirgan holda hisoblab, majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazo bilan almashtiradi yoki bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdoridagi jarimani axloq tuzatish ishlarining 97 bir oyiga tenglashtirgan holda hisoblab, axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Majburiy jamoat ishlari (JK 821-m.). Majburiy jamoat ishlari mahkumni haq to'lanmaydigan foydali jamoat ishlarini bajarishga majburiy tarzda jalb qilishdan iboratdir. Mahkum ishlayotgan yoki o'qiyotgan bo'lsa, majburiy jamoat ishlari ishdan yoki o'qishdan bo'sh vaqtda o'taladi. Majburiy jamoat ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan oltmish soatdan ikki yuz qirq soatgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi. Majburiy jamoat ishlari voyaga yetmaganlarning sog'lig'iga va ma'naviy jihatdan rivojlanishiga zarar yetkazmasligi, o'qish jarayonini buzmasligi lozim. Yodda tuting! O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan majburiy jamoat ishlarini bajarish muddati, agar qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, olti oy davomida kuniga ikki soatdan oshmasligi, mahkumga



bog'liq bo'lmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda esa, bir yilgacha bo'lgan muhlatda kuniga ikki soatdan oshmasligi kerak. Majburiy jamoat ishlarini o'tashdan bo'yin tovlagan voyaga yetmagan mahkumga nisbatan jazolarni ijro etish inspeksiyasi JKning 821 -moddalariga muvofiq majburiy jamoat ishlarini jazoning boshqa turi bilan almashtirish to'g'risida sudga taqdimnoma yuboradi. Mahkum jazoni o'tashdan bo'yin tovlagan taqdirda, sud majburiy jamoat ishlarining o'talmagan muddatini majburiy jamoat ishlarining to'rt soatini ozodlikni cheklashning yoki ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga tenglashtirgan holda hisoblab, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Jazoni o'tashdan bo'yin tovlanilgan vaqt jazoning o'talgan muddatiga qo'shib hisoblanmaydi. Axloq tuzatish ishlari (JK 83-m.). Axloq tuzatish ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan o'z ish joyida o'tash, aybdor hech qayerda ishlamasa, ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o'zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o'tash tariqasida bir oydan bir yilgacha muddatga tayinlanadi. Yodda tuting! Axloq tuzatish ishlari mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladi. Shu bois, qonunga ko'ra, axloq tuzatish ishlari 16 yoshga to'lmagan shaxslarga, mehnatga qobiliyatsiz (belgilangan tartibda birinchi, ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan deb topilgan) shaxslarga, homilador va uch yoshgacha bolasi bor voyaga yetmagan ayollarga, shuningdek, uch yoshgacha bo'lgan bolani farzandlikka olgan yoki unga nisbatan vasiy bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi. Voyaga yetmagan shaxs tayinlangan axloq tuzatish ishlarining o'ndan bir qismidan ko'prog'ini o'tashdan bo'yin tovlagan taqdirda, sud bu jazoning o'talmagan 98 qismini axloq tuzatish ishlarining har uch kunini ozodlikni cheklashning yoki ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga tenglashtirgan holda hisoblab, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Ozodlikni cheklash (JK 841 -m.). JK 841 -moddasida nazarda tutilgan ozodlikni cheklash jazosi voyaga yetmagan mahkumlarga nisbatan asosiy jazo



chorasi sifatida olti oydan ikki yilgacha muddatga tayinlanadi. Yodda tuting! Ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanganda mahkumga yuklatiladigan taqiqlar va majburiyatlar, bu jazoni tayinlash mumkin bo'lmagan shaxslar doirasi JKning 481 -moddasiga ko'ra amalga oshiriladi. Ozodlikdan mahrum qilish (JK 85-m.). Ozodlikdan mahrum qilish jazo tariqasida, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan olti oydan o'n yilgacha (JK 86-moddasida nazarda tutilgan hollarda o'n besh yilgacha) bo'lgan muddatga tayinlanadi. Ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddatlari 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan og'ir jinoyat uchun – 6 yilgacha og'ir jinoyat uchun – 7 yilgacha o'ta og'ir jinoyat uchun – 10 yilgacha o'ta og'ir jinoyat uchun – 10 yilgacha Voyaga yetmay turib ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi. Hukm chiqarish paytida o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini tarbiya koloniyalarida o'tash tayinlanadi (JK 85- m., 5-q.). Jazo tayinlash (JK 86-m.) Voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash paytida JK 54-moddasida nazarda tutilgan holatlardan tashqari, har bir muayyan holda, shuningdek, uning rivojlanish darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasi, sog'lig'i, jumladan, ruhiy rivojlanish darajasi, jinoyatni sodir etish motivlari, katta yoshdagi shaxslarning uning xulq-atvoriga salbiy ta'siri haqidagi ma'lumotlar, shaxsiga ta'sir qiluvchi boshqa holatlar aniqlanishi va baholanishi lozim. Voyaga yetmaganlarga uzil-kesil jazo tayinlash qoidalari Jinoyatlar majmui bo'yicha (tayinlanadi) 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan vaqtda jinoyat sodir etgan shaxslarga ozodlikdan mahrum qilishning eng ko'p muddati 10 yilgacha agar sodir etgan jinoyatlarining bittasi o'ta og'ir jinoyat bo'lsa, 12 yilgacha 16 yoshdan 18 ozodlikdan mahrum agar sodir etgan jinoyatlarining 99 yoshgacha bo'lgan vaqtda jinoyat sodir etgan shaxslarga qilishning eng ko'p muddati 12 yilgacha bittasi o'ta og'ir jinoyat bo'lsa, 15 yilgacha Bir necha hukm yuzasidan 14 yoshdan 18



yoshgacha bo‘lgan vaqtda jinoyat sodir etgan shaxslarga ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddati 15 yildan oshmasligi kerak Majburlov choralari qo‘llagan holda javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish Voyaga yetmaganlarga javobgarlikdan ozod etish to‘g‘risidagi umumiy qoidalar yoki JK 64–76-moddalarida nazarda tutilgan jazolar va JK 87-moddasida nazarda tutilgan jazo va javobgarlikdan ozod qilish tartibini belgilovchi qoidalar tarbiyaviy ta‘sir choralarini qo‘llash orqali tatbiq etilishi mumkin. Har bir alohida vaziyat uchun qo‘llashda mos holatlarni tanlash vakolatli organlar tomonidan jinoyat sodir etgan shaxsning uni javobgarlikka tortgan vaqtdagi yoshi, aybdor shaxsi, yengillashtiruvchi, og‘irlashtiruvchi va boshqa holatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. JK 87-moddasi 1-qismiga muvofiq, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan shaxs, agar sodir etgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e‘tiborga olib, uni jazo qo‘llamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa, javobgarlikdan ozod qilinib, ish voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyada ko‘rishga topshirilishi mumkin. Yodda tuting! Ko‘rib chiqilayotgan asos bo‘yicha, faqat bu shartlar har birining birgalikda mavjudligi voyaga yetmaganni jinoiy javobgarlikdan ozod etish imkoniyatini beradi. JK 87-moddasi 2-qismiga muvofiq, “besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlash nazarda tutilgan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan yoki ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatni takroran sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni, mazkur moddaning 1-qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lsa, sud jazodan ozod qilish va unga nisbatan majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqishi shart”. Majburlov choralari JK 88-moddasi 1-qismiga muvofiq, quyidagilar voyaga yetmaganlarga qo‘llaniladigan majburlov choralari bo‘lib hisoblanadi: a) sud belgilaydigan shaklda jabrlanuvchidan uzr so‘rash majburiyatini yuklash; 100 b) o‘n olti yoshga to‘lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o‘z mablag‘i hisobidan yoki mehnati bilan



to'lash yoki bartaraf qilish majburiyatini yuklash. Ushbu chora agar yetkazilgan zarar belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan oshib ketmagan bo'lsa qo'llaniladi. Boshqa hollarda yetkazilgan zarar fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida undiriladi; v) voyaga yetmaganni maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish. JK 88-moddasida nazarda tutilgan majburlov choralari tarbiyaviy tavsifga ega. Boshqacha qilib aytganda, ular jinoiy jazo xususiyatiga ega emas, o'zida qilmishga nisbatan jazoni nazarda tutmaydi, balki voyaga yetmaganning ongiga o'z axloqiga nisbatan salbiy bahoni yetkazish uchun qo'llaniladi. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning mohiyati shundaki, sud jazoning o'talmagan muddati davomida voyaga yetamagan shaxs qasddan yangi jinoyat sodir etmaslik sharti bilan, jazo o'tayotgan shaxsni uning o'talmagan qismini o'tashdan ozod qiladi. Shunday qilib, jazoning o'talmagan qismi o'ziga xos sinov muddati hisoblanadi. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslari Quyidagi jazolarni o'tayotganlarga qo'llaniladi: ♣ ozodlikdan mahrum qilish ♣ ozodlikni cheklash ♣ axloq tuzatish ishlari ♣ Sud tomonidan tayinlangan jazoning qonunda nazarda tutilgan qismini amalda o'taganligi Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish shartlari ♣ Mahkumning o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajarganligi ♣ Mehnat va o'qishga halol munosabatda bo'lganligi Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni sud mahkum jazo o'tayotgan joyda o'talayotgan jazoning ijro etilishiga mas'ul bo'lgan organlarning taqdimnomasi bo'yicha qo'llaydi. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish mahkum quyidagi jazo muddatlarini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llanilishi mumkin: a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida 1/4 qismini; b) og'ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida 1/3 qismini; v) o'ta og'ir jinoyat uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm



qilingan bo'lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida 1/2. Yodda tuting! 101 Jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo'llanilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, sud unga nisbatan ushbu Kodeksning 60 va 86-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlaydi. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishning mohiyati shundaki, sud voyaga yetmagan mahkum o'tayotgan jazoni qonunda belgilangan shartlar mavjud bo'lsa yengilroq turdagi jazo turiga almashtiradi. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish asoslari Quyidagi jazolarni o'tayotganlarga qo'llaniladi: ♣ ozodlikdan mahrum qilish ♣ ozodlikni cheklash ♣ axloq tuzatish ishlari ♣ Sud tomonidan tayinlangan jazoning qonunda nazarda tutilgan qismini amalda o'taganligi Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish shartlari ♣ Mahkumning o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajarganligi ♣ Mehnat va o'qishga halol munosabatda bo'lganligi Ushbu norma bo'yicha shaxsning jazosi og'irroq turdagi jazoga almashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Jazoning yengilligi yoki og'irligi JKning 81-moddasida belgilangan jazo tizimidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish mahkum quyidagi jazo muddatlarini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llanilishi mumkin: a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida 1/5 qismini; b) og'ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida 1/4 qismini; v) o'ta og'ir jinoyat uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida 1/3 qismini. Yodda tuting! Ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoning o'talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosining o'talmagan qismi muddatiga tayinlanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jinoyat huquqi: O'zbekiston Respublikasi IIV akademik litseylari uchun darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. T.R. Kuchkarov O'.M. Otaev XIII bob M.M. Qalandarov bilan hammualliflikda M.M. Qalandarov – yuridik fanlar nomzodi, dotsent O'.M. Otaev bilan hammualliflikda M.M. Xaydarov – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent M.M. Xaydarov
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 1994.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023.
4. Advance.uz
5. Lex.uz.